

2025-yil "28" "fevral" dagi 3-03/son 178
Startaplar ekotizimini rivojlantirish bo'yicha
Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishi
bayoniga 2-sonli ilova

**Yetakchi xalqaro akseleratsiya dasturlarida ishtirok etish hamda tadbirkorlik,
biznes va korporativ boshqaruv bo'yicha kurslarda ta'lim olish bilan bog'liq
xarajatlarni qoplash mexanizmi to'g'risidagi**

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi "Startap-loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-357-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, xalqaro akseleratsiya dasturlarida ishtirok etish hamda tadbirkorlik, biznes va korporativ boshqaruv bo'yicha kurslarda ta'lim olish xarajatlarini qoplash tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

Dastur – raqamli texnologiyalar sohasidagi startaplarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan Raqamli startaplar dasturi;

Platforma – Startap loyihalar ekotizimi platformasi (www.startupbase.uz);

Direksiya – "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi" MChJ;

Da'vogar – yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, Dastur ishtirokchisi hisoblanib, xarajatlarni qoplash uchun kompensatsiya olishga da'vogar bo'lgan startap-loyihalar;

Xarajatlarni qoplash – ushbu Nizomda belgilangan tartibda Da'vogarning yetakchi xalqaro akseleratsiya dasturlarida ishtirok etishi, shuningdek tadbirkorlik, biznes va korporativ boshqaruv bo'yicha kurslarda ta'lim olishi bilan bog'liq xarajatlarning 50 foizigacha, ammo 20 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshmaydigan miqdordagi xarajatlarni qoplashdan iborat;

Akseleratsiya dasturi – mentorlik, ixtisoslashtirilgan o'quv tadbirlari va ekspert maslahatlari orqali startaplarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan xalqaro ta'lim tashabbusi bo'lib, bu yangi bozorlarga kengayish va investitsiyalarni jalb qilish salohiyatiga ega startaplarni jadal rivojlantirish imkonini beradi;

O'quv kurslari – tadbirkorlik, biznes va korporativ boshqaruv yo'nalishi bo'yicha o'quv kurslari;

Ekspert komissiyasi – Dasturda ishtirok etish uchun arizalarni ko'rib chiqish, Dastur ishtirokchisi maqomini olishga da'vogar bo'lgan nomzodlarning biznes-rejalarini tahlil qilish maqsadida Direksiya huzurida malakali mutaxassislardan tashkil etiladigan organ.

3. Xarajatlar kompensatsiyasi ushbu Nizomda belgilangan talablar va mezonlarga muvofiq bo'lgan da'vogarlarga tatbiq etiladi.

4. Da'vogarlar uchun xarajatlarni qoplash ushbu Nizomning 1-ilovasiga muvofiq keltirilgan sxema asosida Direksiyaning pul mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

5. Da'vogarlardan kelib tushgan arizalarni ko'rib chiqish hamda xarajatlarni qoplash to'g'risida qaror qabul qilish maqsadida Direksiya huzurida Ekspert komissiyasi tashkil etiladi.

6. Ekspert komissiyasining tarkibi va faoliyat tartibi Direksiya tomonidan o'zlarining ichki nizomlariga muvofiq belgilanadi.

II. Xarajatlarni kompensatsiya qilish shartlari va tartibi

7. Da'vogarlarning yetakchi xalqaro akseleratsiya dasturlarida ishtirok etish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash uchun quyidagi mezonlarga muvofiqlik talablari mavjud:

- xalqaro akseleratsiya dasturlarini 5 yildan ortiq muddat davomida amalga oshirgan bo'lishi;

- ushbu xalqaro akseleratsiya dasturlarida ishtirok etgan startaplar tegishli akseleratsiya dasturidan o'tgandan so'ng jami kamida 100 million AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb qilgan bo'lishi;

8. Bunda Ekspert komissiyasi tomonidan xalqaro akseleratsiya dasturlari ommaviy foydalanish mumkin bo'lgan ishonchli manbalar asosida maxsus tekshiriladi.

9. Da'vogarlarning tadbirkorlik, biznes va korporativ boshqaruv kurslari bo'yicha ta'lim olish xarajatlarini qoplash uchun quyidagi mezonlarga javob berishi talab etiladi:

- kurslarning startap-loyiha faoliyatiga mos kelishi va amaliy yo'naltirilganligi;
- kurs mazmunining innovatsion texnologiyalar va biznesdagi so'nggi tendensiyalarni aks ettirishi;

- kurs narxining o'rganiladigan ko'nikma va bilimlarga muvofiqligi;

- kurslar yo'nalishi bo'yicha tegishli tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilarning mavjudligi.

10. Tadbirkorlik, biznes va korporativ boshqaruvni o'qitish bo'yicha tegishli kurslar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

11. Xarajatlarni qoplash akseleratsiya dasturi yoki o'quv kurslari haqidagi ma'lumotlar, o'tkaziladigan mamlakat, muddatlar va kutilayotgan natijalar tavsifini o'z ichiga olgan taqdim etilgan arizalar asosida amalga oshiriladi.

12. Xarajatlarni qoplashning eng yuqori miqdori umumiy xarajatlarning 50 foizini tashkil etishi mumkin, lekin 20 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshmasligi kerak. Qoplashning yakuniy summasi xalqaro akseleratsiya dasturlarining reytingi, startap-loyihaning kengayish imkoniyatlari va moliyaviy barqarorligi hamda ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq qoplash foiziga asosan belgilanadi.

13. Tasdiqlovchi hujjatlar asosida akseleratsiya dasturi yoki o'quv kursi qiymatidan tashqari, Direksiya quyidagi xarajatlarni ham qoplashi mumkin:

- ekonom klass tarifi bo'yicha havo transporti xarajatlari;
- akseleratsiya dasturida yoki o'quv kursida ishtirok etish va bo'lish davrida yashash xarajatlari, ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq aniqlanadi.

14. Akseleratsiya dasturi yoki o'quv kursi qiymatiga kiritilmagan boshqa xarajatlar qoplanmaydi.

III. Kompensatsiya berish uchun arizalar topshirish tartibi

15. Da'vogar xarajatlarni qoplashning mumkin bo'lgan summasini baholash maqsadida akseleratsiya dasturida ishtirok etishdan avval platformada quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda dastlabki arizani taqdim etishi lozim:

- akseleratsiya dasturi yoki o'quv kursining nomi;
- akseleratsiya dasturi yoki o'quv kursidan o'tish uchun taklifnoma;
- akseleratsiya dasturi yoki o'quv kursidan o'tadigan ishtirokchilar soni;
- akseleratsiya dasturi yoki o'quv kursida ishtirok etish bilan bog'liq kutilayotgan budjet va rejalashtirilgan xarajatlar.

16. Dastlabki arizalar asosida, ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq platformada avtomatik hisoblash usuli bilan, da'vogarga xarajatlarni qoplashning mumkin bo'lgan summa ko'rsatilgan xabarnoma yuboriladi.

Bunda hisoblangan summa yakuniy hisoblanmaydi va ariza topshirilgandan hamda tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgandan so'ng o'zgarishi mumkin.

17. Xarajatlarni qoplash uchun, akseleratsiya dasturi yoki o'quv kursi yakunlangandan so'ng, da'vogar Direksiya tomonidan tasdiqlangan shaklga muvofiq platformada ariza topshirishi va unga quyidagi hujjatlarni ilova qilishi lozim:

- akseleratsiya dasturida ishtirok etganlik yoki o'quv kursini muvaffaqiyatli tugatganlik to'g'risidagi sertifikat;
- amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlarni tasdiqlovchi moliyaviy hisobot.

IV. Arizalarni ko'rib chiqish tartibi

18. Ariza Ekspert komissiyasi tomonidan ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq sxemaga mos ravishda 15 (o'n besh) ish kuni mobaynida ko'rib chiqiladi.

19. Ekspert komissiyasi kotibi ariza kelib tushgan paytdan boshlab 5 (besh) ish kuni mobaynida ilova qilinayotgan hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi va to'liqligini tekshiradi.

20. Ushbu Nizom talablariga nomuvofiqlik aniqlangan, shuningdek ishonchsiz (noto'g'ri) ma'lumotlar aniqlangan, shuningdek majburiy ma'lumotlar mavjud bo'lmagan taqdirda Ekspert komissiyasi arizani ko'rib chiqishni rad etishga haqli.

21. Ekspert komissiyasi 10 (o'n) ish kuni mobaynida arizani va unga ilova qilingan hujjatlarni ko'rib chiqadi. Arizani ko'rib chiqish natijalaridan kelib chiqqan holda Ekspert komissiyasi xarajatlarni kompensatsiya qilishni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Ma'qullangan taqdirda, da'vogar xarajatlarni qoplashning kelishilgan miqdori va kompensatsiya olish uchun talablar ro'yxati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan platformada bog'langan elektron pochta orqali xabarnoma oladi.

Rad etilgan taqdirda ariza beruvchiga rad etish sababi ko'rsatilgan holda rad etish to'g'risida bildirishnoma yuboriladi.

22. Ekspert komissiyasining qarori bayonnoma tarzida rasmiylashtiriladi, uzil-kesil hisoblanadi va nizolashishga yo'l qo'yilmaydi.

23. Zarurat bo'lganda, Ekspert komissiyasi tomonidan da'vogar bilan suhbat tashkil etilishi mumkin. Intervyu elektron aloqa vositalaridan foydalangan holda masofadan turib tashkil etilishi mumkin.

24. Ariza ma'qullangan taqdirda xarajatlarni qoplash bo'yicha mablag'lar Direksiya bilan xarajatlarni qoplash to'g'risida bitim tuzilgan paytdan boshlab 10 (o'n) bank kuni mobaynida da'vogarning bank hisob raqamiga o'tkaziladi.

25. Arizalarni ko'rib chiqishda Ekspert komissiyasi ushbu Nizomda bayon etilgan talablar va shartlarga amal qiladi.

V. Kompensatsiya berishni rad etish asoslari

26. Xarajatlarni kompensatsiya qilishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

- ushbu Nizomning 7-bandida ko‘rsatilgan shartlarga mos kelmasligi;
- ushbu Nizom talablariga amal qilmaslik;
- ishonchsiz (noto‘g‘ri) ma‘lumotlarni taqdim etish yoki majburiy ma‘lumotlarni taqdim etmaslik;
- haqiqiy xarajatlarni tasdiqlovchi zarur hujjatlarning yo‘qligi;
- maqsadsiz xarajatlar holatlari aniqlanishi.

27. Xarajatlarni kompensatsiya qilish rad etilgan taqdirda, Ekspert komissiyasi tegishli qaror qabul qiladi va rad etish sabablarini ko‘rsatgan holda da‘vogarga xabarnoma yuboradi.

28. Xarajatlarni kompensatsiya qilish rad etilgan taqdirda, da‘vogar Ekspert komissiyasi tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish va qaytadan ariza topshirish huquqiga ega.

VII. Yakuniy qoidalar

29. Ushbu Nizom startaplar ekotizimi ishtirokchilarining ehtiyojlari va taqdim etilayotgan qoplash mexanizmining samaradorligi tahlili natijalariga ko‘ra qayta ko‘rib chiqilishi va takomillashtirilishi mumkin.

30. Direksiya qoplash uchun ajratilgan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini nazorat qilish va monitoring o‘tkazish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

31. Mazkur Nizom talablariga rioya etilishini nazorat qilish Direksiya tomonidan amalga oshiriladi.

Yetakchi xalqaro akseleratsiya dasturlarida ishtirok etish hamda tadbirkorlik, biznes va korporativ boshqaruv bo'yicha kurslarda ta'lim olish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash mexanizmi to'g'risidagi nizomga
1-ilova

**Yetakchi xalqaro akseleratsiya dasturlarida ishtirok etish hamda tadbirkorlik, biznes va korporativ boshqaruv bo'yicha kurslarda ta'lim olish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash mexanizmi va arizalarni ko'rib chiqish
SXEMASI**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Da'vogar	Kompensatsiya summasini baholash uchun platformada dastlabki arizani topshiradi.	Zarur bo'lgan hollarda
2-bosqich	Direksiya Platforma	Dastlabki arizani tekshiradi, mumkin bo'lgan kompensatsiya miqdorini baholaydi va Da'vogarga tegishli xabarnomani jo'natadi.	Arizalar kelib tushishiga qarab (avtomatik ravishda)
3-bosqich	Da'vogar	Inkubatsiya (akseleratsiya) dasturi o'tkazilgandan so'ng xarajatlarni qoplash uchun ariza topshiradi va zarur tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qiladi.	Inkubatsiya (akseleratsiya) dasturi yakunlangandan so'ng, zarurat tug'ilgan holatlarda
4-bosqich	Direksiya	Arizaning to'g'ri rasmiylashtirilgani va ilova qilingan hujjatlarning to'liqligini tekshiradi. a) Ushbu Nizom talablariga nomuvofiqlik aniqlanganda, shuningdek, majburiy ma'lumotlarda ishonchsiz (noto'g'ri) ma'lumotlar topilganda yoki ular mavjud bo'lmaganda, arizani rad etadi yoki uni qayta ishlash uchun qaytaradi. Bunday holda, arizani qayta yuborish vaqti ko'rib chiqish muddatining boshlanishi hisoblanadi. b) Ilova qilingan hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilgan va to'liq bo'lgan taqdirda, ariza va hujjatlarni Direksiya huzuridagi Ekspert komissiyasiga yuboradi.	5 (besh) ish kuni mobaynida

5-bosqich	Ekspert komissiyasi	1. Ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni ko'rib chiqib, arizani rad etish yoki ma'qullash to'g'risida qaror qabul qiladi. 2. Ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, da'vogarga platformada va elektron pochta orqali arizaning ma'qullanganligini (xarajatlarni qoplash uchun mablag' olishga doir talablar ro'yxatini ko'rsatgan holda) yoki rad etilganligini bildiruvchi xabarnoma yuboradi.	10 (o'n) ish kuni mobaynida
6-bosqich	Direksiya	Ariza ma'qullangan taqdirda, da'vogar bilan xarajatlarni qoplash to'g'risida kelishuv tuziladi va pul mablag'lari da'vogarning bank hisob raqamiga o'tkazib beriladi.	Xarajatlarni qoplash to'g'risidagi kelishuv tuzilgan kundan boshlab 10 (o'n) bank ish kuni ichida

Yetakchi xalqaro akseleratsiya dasturlarida
ishtirok etish hamda tadbirkorlik, biznes va
korporativ boshqaruv bo'yicha kurslarda
ta'lim olish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash
mexanizmi to'g'risidagi nizomga
2-ilova

Xarajatlarni kompensatsiya qilish miqdorini hisoblash jadvali

Kurs dasturining mavjudligi	Foiz vazni
5-7 yil	5%
7-10 yil	10%
10 yildan ortiq	15%
Dasturning hududiy qamrovi	Foiz vazni
Mintaqaviy	2%
Xalqaro	5%
Startup loyiha rivojlanish bosqichi	Foiz vazni
Pre-seed	3%
Seed	5%
Series A	10%
ko'proq	15%
Startup loyiha bozori	Foiz vazni
Mahalliy	3%
Mintaqaviy	7%
Xalqaro	10%
Kurs davomiyligi	Foiz vazni
Qisqa muddatli (1 haftadan 1 oygacha)	3%
O'rta muddatli (1 oydan 3 oygacha)	5%
Uzoq muddatli (3 oydan ortiq)	10%

Yetakchi xalqaro akseleratsiya dasturlarida
ishtirok etish hamda tadbirkorlik, biznes va
korporativ boshqaruv bo'yicha kurslarda
ta'lim olish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash
mexanizmi to'g'risidagi nizomga
3-ilova

Yetakchi xalqaro akseleratsiya dasturlarida ishtirok etish hamda tadbirkorlik, biznes va korporativ boshqaruv bo'yicha kurslarda ta'lim olish bilan bog'liq yashash xarajatlarini aniqlash me'yorlari

T/r	Mamlakat yoki hudud	Xorijiy valyuta nomi	Turar joy ijarasi bo'yicha xarajatlari to'lovining eng yuqori me'yori (sutkada ko'rsatilgan summagacha) Ushbu Nizomning 12-bandi 1-qismiga muvofiq xarajatlarning belgilangan me'yorlarning 50 foizi qoplanadi
1.	AVSTRALIYA	AQSh dollari	100,00
2.	AVSTRIYA	yevro	130,00
3.	OZARBAYJON	AQSh dollari	100,00
4.	ALBANIYA	AQSh dollari	120,00
5.	JAZOIR	AQSh dollari	48,00
6.	ANGOLA	AQSh dollari	100,00
7.	ANTIGUA VA BARBUDA	AQSh dollari	80,00
8.	ARGENTINA	AQSh dollari	80,00
9.	AFG'ONISTON	AQSh dollari	100,00
10.	ARMANISTON	AQSh dollari	100,00
11.	BANGLADESH	AQSh dollari	80,00
12.	BAHRAYN	AQSh dollari	130,00
13.	BELARUS	AQSh dollari	100,00
14.	BELGIYA	yevro	125,00

15.	BOLGARIYA	yevro	100,00
16.	BOLIVIYA	AQSh dollari	60,00
17.	BOSNIYA VA GERSEGOVINA	yevro	100,00
18.	BRAZILIYA	AQSh dollari	130,00
19.	BRUNEY	AQSh dollari	100,00
20.	BUTAN	AQSh dollari	60,00
21.	BUYUK BRITANIYA	Angliya funt sterlingi	100,00
22.	VENGRIYA	yevro	100,00
23.	VENESUELA	AQSh dollari	60,00
24.	VETNAM	AQSh dollari	100,00
25.	GANA	AQSh dollari	80,00
26.	GERMANIYA	yevro	130,00
27.	GONKONG	AQSh dollari	130,00
28.	GRESIYA	yevro	100,00
29.	GRUZIYA	AQSh dollari	100,00
30.	DANIYA	krona	600,00
31.	KONGO (ZAIR) DEMOKRATIK RESPUBLIKASI	AQSh dollari	60,00
32.	MISR	AQSh dollari	120,00
33.	ISROIL	AQSh dollari	130,00
34.	HINDISTON	AQSh dollari	130,00
35.	INDONEZIYA	AQSh dollari	150,00
36.	IORDANIYA	AQSh dollari	60,00
37.	IROQ	AQSh dollari	80,00
38.	ERON	AQSh dollari	120,00
39.	IRLANDIYA	yevro	130,00
40.	ISLANDIYA	AQSh dollari	130,00
41.	ISPANIYA	yevro	130,00
42.	ITALIYA	yevro	130,00
43.	YAMAN RESPUBLIKASI	AQSh dollari	100,00

44.	QOZOG'ISTON	AQSh dollari	100,00
45.	KAMBODJA	AQSh dollari	60,00
46.	KANADA	AQSh dollari	150,00
47.	QATOR	AQSh dollari	130,00
48.	KENIYA	AQSh dollari	60,00
49.	KIPR	yevro	100,00
50.	XITOI XALQ RESPUBLIKASI	AQSh dollari	100,00
51.	KOLUMBIYA	AQSh dollari	80,00
52.	KONGO	AQSh dollari	90,00
53.	KOSTA-RIKA	AQSh dollari	70,00
54.	KOT D.IVUAR	AQSh dollari	74,00
55.	KUBA	AQSh dollari	70,00
56.	QUVAYT	AQSh dollari	120,00
57.	QIRG'IZISTON	AQSh dollari	100,00
58.	LAOS	AQSh dollari	60,00
59.	LATVIYA	yevro	100,00
60.	LIVAN	AQSh dollari	75,00
61.	LIVIYA	AQSh dollari	70,00
62.	LITVA	yevro	100,00
63.	LIXTENSHTeyN	shv.franki	120,00
64.	LUKSEMBURG	yevro	130,00
65.	MAKEDONIYA	yevro	60,00
66.	MALAYZIYA	AQSh dollari	150,00
67.	MALDIV RESPUBLIKASI	AQSh dollari	60,00
68.	MALTA	yevro	70,00
69.	MAROKKO	AQSh dollari	70,00
70.	MEKSIKA	AQSh dollari	100,00
71.	MOZAMBIK	AQSh dollari	60,00
72.	MOLDOVA	AQSh dollari	100,00
73.	MONGOLIYA	AQSh dollari	80,00

74.	MYANMA	AQSh dollari	60,00
75.	NEPAL	AQSh dollari	60,00
76.	NIDERLANDIYA	yevro	130,00
77.	YANGI ZELANDIYA	AQSh dollari	140,00
78.	NORVEGIYA	krona	1 000,00
79.	BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI	AQSh dollari	140,00
80.	UMMON	AQSh dollari	130,00
81.	POKISTON	AQSh dollari	120,00
82.	PAPUA YANGI GVINEYA	AQSh dollari	100,00
83.	PERU	AQSh dollari	60,00
84.	POLSHA	yevro	100,00
85.	PORTUGALIYA	yevro	100,00
86.	ROSSIYA	AQSh dollari	120,00
	MOSKVA VA SANKT-PETERBURG SHAHARLARI	AQSh dollari	130,00
87.	RUMINIYA	yevro	100,00
88.	SAUDIYA ARABISTONI	AQSh dollari	120,00
89.	SERBIYA	yevro	100,00
90.	SENEGAL	AQSh dollari	68,00
91.	SINGAPUR	AQSh dollari	182,00
92.	SURIYA	AQSh dollari	80,00
93.	SLOVAKIYA	yevro	100,00
94.	SLOVENIYA	yevro	100,00
95.	AQSH	AQSh dollari	150,00
96.	TAILAND	AQSh dollari	120,00
97.	TAYVAN	AQSh dollari	100,00
98.	TOJIKISTON	AQSh dollari	100,00
99.	TUNIS	AQSh dollari	60,00
100.	TURKMANISTON	AQSh dollari	100,00
101.	TURKIYA	AQSh dollari	120,00

102.	UKRAINA	AQSh dollari	120,00
103.	URUGVAY	AQSh dollari	60,00
104.	FILIPPIN	AQSh dollari	150,00
105.	FINLYANDIYA	yevro	130,00
106.	FRANSIYA	yevro	130,00
107.	XORVATIYA	yevro	100,00
108.	CHEXIYA	yevro	100,00
109.	CHILI	AQSh dollari	100,00
110.	CHERNOGORIYA	yevro	100,00
111.	SHVEYSARIYA	frank	200,00
112.	SHVESIYA	krona	1 000,00
113.	SHRI LANKA	AQSh dollari	80,00
114.	EKVADOR	AQSh dollari	60,00
115.	EKVATORIAL GVINEYA	AQSh dollari	50,00
116.	ESTONIYA	yevro	100,00
117.	JANUBIY KOREYA	AQSh dollari	150,00
118.	JAR	AQSh dollari	60,00
119.	YAPONIYA	AQSh dollari	210,00
120.	BOSHQA MAMLAKATLAR	AQSh dollari	65,00